



**DAVLAT ULUSHI MAVJUD KORXONALARDA KORPORATIV  
BOSHQARUVNING O'RNI VA AHAMIYATI (KON-METALLURGIYA  
SANOATI KORXONALARI MISOLIDA)**

**Xalilova Yulduz Nusratilloyevna**

*Bank-moliya akademiyasi, ikkinchi bosqich magistranti,*

*E-mail: [xalilova\\_yulduz@mail.ru](mailto:xalilova_yulduz@mail.ru)*

**Annotatsiya:** Ushbu tezisda davlat ulushi mavjud kon-metallurgiya sanoati korxonalarida korporativ boshqaruvning o'rni va ahamiyati o'rganilgan. Kon-metallurgiya tarmog'i iqtisodiyotning strategik sohasi bo'lib, unda samarali boshqaruv milliy barqarorlikni ta'minlashda muhim hisoblanadi. Tezisda korporativ boshqaruv tamoyillari orqali shaffoflikni kuchaytirish, aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish, menejment samaradorligini oshirish va raqobatbardoshlikni ta'minlash zarurligi asoslab berilgan. Shuningdek, kuzatuv kengashlari hamda ijro organlari vakolatlarini belgilash, korporativ boshqaruv kodekslariga rioya qilish va xalqaro tajribadan foydalanishning afzalliliklari yoritilgan. Natijada, korporativ boshqaruv davlat ulushi mavjud kon-metallurgiya korxonalarining samarali faoliyat yuritishi va iqtisodiyotdagi rolini kuchaytuvchi muhim mexanizm sifatida baholangan.

**Kalit so'zlar:** Davlat ulushi, korporativ boshqaruv, kon-metallurgiya sanoati, aksiyadorlik jamiyati, davlat ishtiroki, boshqaruv tizimi, shaffoflik, samaradorlik, kuzatuv kengashi, ijro organlari, aksiyadorlar huquqlari, bozor iqtisodiyoti.

Mamlakat iqtisodiy taraqqiyotida davlat ulushi mavjud korxonalar alohida ahmiyat kasb etadi chunki bunday korxonalar ko'pincha strategik tarmoqlarda faoliyat yuritadi va ularning samarali ishlashi milliy iqtisodiy xavfsizlik, barqaror rivojlanish hamda ijtimoiy farovonlikni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Davlat ulushi mavjud korxonalarda korporativ boshqaruv tizimini



takomillashtirish masalasi nafaqat ichki boshqaruv samaradorligi, balki tashqi investitsion jozibadorlik, aksiyadorlar hamda manfaatdor tomonlar ishonchini mustahkamlash nuqtayi nazaridan ham dolzarbdir. Ayniqsa, kon-metallurgiya sanoati korxonalari misolida bu masala yanada muhimroq ko‘rinadi, chunki ushbu soha mamlakatning sanoat ishlab chiqarishi, eksport salohiyati va byudjet daromadlari shakllanishida yetakchi rol o‘ynaydi.

Korporativ boshqaruv tushunchasi mohiyatiga ko‘ra, korxona faoliyatida shaffoflikni ta’minlash, mulk egalari va menejment o‘rtasidagi munosabatlarni muvofiqlashtirish, aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish, manfaatdor tomonlarning manfaatlarini inobatga olish kabi tamoyillarga asoslanadi. Jahan tajribasi shuni ko‘rsatadiki, korporativ boshqaruv mexanizmlarini to‘g‘ri yo‘lga qo‘ygan davlat ulushi mavjud korxonalar nafaqat milliy iqtisodiyotda samaradorlikni ta’minlaydi, balki xalqaro bozorlarda ham o‘z mavqeini mustahkamlashga erishadi. Bunda davlatning korxonalar ustidan nazoratni saqlagan holda, ularni bozor talablariga moslashtirish, raqobatbardoshlikni kuchaytirish va zamonaviy boshqaruv yondashuvlarini tatbiq etish orqali yuqori natijalarga erishish mumkin.

Kon-metallurgiya sanoati O‘zbekiston iqtisodiyotining eng muhim tarmoqlaridan biri bo‘lib, u nafaqat xomashyo bazasini ta’minlash, balki yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatiga ham ega. Bu sohada davlat ulushi mavjud yirik korxonalar faoliyat yuritadi va ularning samarali boshqarilishi butun tarmoqning rivojlanish sur’atlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois ushbu korxonalarda korporativ boshqaruv tizimini kuchaytirish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, investitsion loyihalarni kengaytirish, eksport imkoniyatlarini ko‘paytirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish imkoniyatlari mavjud. Aynan shu jihatlar mazkur mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Davlat ulushi mavjud korxonalarda korporativ boshqaruvni takomillashtirish zarurati, eng avvalo, menejment samaradorligi bilan bog‘liq.



Ko‘plab hollarda bunday korxonalarda boshqaruvning an’anaviy usullari ustuvor bo‘lib, zamonaviy boshqaruv tamoyillari yetarli darajada joriy etilmagan. Natijada, ishlab chiqarish samaradorligi past bo‘lishi, resurslardan foydalanishda oqilona yondashuv yetishmasligi, shuningdek, aksiyadorlar va manfaatdor tomonlar oldida shaffoflikning yetarli darajada ta’milanmasligi kabi muammolar kuzatilishi mumkin. Korporativ boshqaruv mexanizmlarini joriy etish esa ushbu muammolarni bartaraf etish, boshqaruvning ochiqligi va hisobdorligini ta’minalash, shuningdek, korxonalar faoliyatida samaradorlikni oshirish imkonini beradi.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, kon-metallurgiya sanoatida faoliyat yuritayotgan davlat ulushi mavjud korxonalarda korporativ boshqaruv tizimining joriy etilishi nafaqat korxona darajasida, balki umuman mamlakat iqtisodiyoti miqyosida ham sezilarli natjalarni beradi. Bu, bir tomondan, korxonalarning iqtisodiy ko‘rsatkichlarini yaxshilash, boshqa tomondan esa, xalqaro hamkorlik imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Chunki bugungi global iqtisodiyot sharoitida xorijiy investorlar uchun korxonada shaffoflikning ta’milanishi, samarali boshqaruv tizimining mavjudligi, huquqiy kafolatlarning mavjudligi katta ahamiyatga ega.

Korporativ boshqaruvning aniq shakllangan ishtirokchilari va vazifalari nafaqat korxonaning iqtisodiy barqarorligini ta’minlaydi, balki uning ijtimoiy mas’uliyatli tashkilot sifatida jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lishini ta’minlaydi. Bunday tizimning samarali faoliyati uchun barcha ishtirokchilarning o‘zaro manfaatlari va majburiyatları aniq tartibga solinishi talab etiladi. Bugungi global iqtisodiy muhitda korporativ boshqaruv ushbu vazifalarni bajarish orqali korporatsiyalarning uzoq muddatli rivojlanishiga xizmat qiladi.

Korporativ boshqaruv modellari bu korxona faoliyatida boshqaruv jarayonlarini tartibga soluvchi asosiy tamoyillar, munosabatlar va jarayonlar majmuidir. Ushbu modellar asosan har bir mamlakatning iqtisodiy tizimi, huquqiy muhiti, ijtimoiy-siyosiy holati va tarixiy rivojlanish xususiyatlariga





bog‘liq holda shakllangan. Shu sababli, korporativ boshqaruv modellari turli davlatlarda o‘ziga xos jihatlarga ega bo‘lib, ularni to‘g‘ri qo‘llash korporatsiyalarning samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiy o‘sishning bu yo‘nalishida, “bandlik, kambag‘allikni kamaytirish va umumiy farovonlikka ijobiy ta’sir qiladi. Empirik ma’lumotlar bu munosabatlarni mamlakat, sanoat va firma darajasida, shuningdek, investorlar nuqtai nazaridan tasdiqlamoqda. Garchi dalillar ko‘p va ular to‘planishda davom etayotgan bo‘lsa-da, bu natijalarning”<sup>1</sup> aksariyati hozircha faqat tahlillardan iborat va yanada chuqurroq tadqiqotlarni talab qiladi.

Korporativ boshqaruvning o‘sish va rivojlanishga ta’sir qiluvchi o‘zaro bog‘liq yo‘nalishlari quyidagilardan iborat (1-rasm):

**Kompaniyalarning tashqi moliyalashtirishdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish.**

• Bu investisiyalarning ko‘payishiga, iqtisodiy o‘sishning tezlashishiga va yangi ish o‘rnlari yaratilishiga olib kelishi mumkin

**Kapital qiymatining pasayishi va kompaniyalarning yuqori baholanishi**

• Bu investisiyalarni investorlar uchun yanada jozibador qiladi va iqtisodiy o‘sishga hamda bandlikni ta’minlashga hissa qo‘shadi

**Resurslarni samarali taqsimlash va operasion samaradorlikni oshirish**

• Bu boylik yaratishga olib keladi

**Moliyaviy inqirozlar xavfini kamaytirish**

• Bu muhim, chunki moliyaviy inqirozlar katta iqtisodiy va ijtimoiy xarajatlarga sabab bo‘lishi mumkin

**Barcha manfaatdor tomonlar bilan aloqalarini yaxshilash**

• Bu ijtimoiy va mehnat munosabatlarini, atrof-muhitni muhofaza qilishni yaxshilashga yordam beradi

### **1-rasm. Korporativ boshqaruvning o‘sish va rivojlanishga ta’sir qiluvchi o‘zaro bog‘liq yo‘nalishlari<sup>2</sup>**

<sup>1</sup> Тапаров К.Х. Стrатегические принципы совершенствования механизма корпоративного управления в горно-металлургической промышленности. Стратегирование: теория и практика рецензируемый журнал Том-4 № 4/2024. Стр. 510-524.

<sup>2</sup> Тапаров К.Х. Стrатегические принципы совершенствования механизма корпоративного управления в горно-металлургической промышленности. Стратегирование: теория и практика рецензируемый журнал Том-4 № 4/2024. Стр. 510-524.



Korporativ boshqaruv tizimi nafaqat kompaniyaning ichki jarayonlarini, balki uning barcha manfaatdor tomonlar bilan munosabatlarini ham tartibga soladi. Turli ilmiy maktablar va tadqiqotchilar tomonidan korporativ boshqaruvning asosiy vazifalari, mexanizmlari va maqsadlari bo'yicha turli nazariy yondashuvlar ishlab chiqilgan. Bu nazariyalar kompaniya boshqaruvini yanada samarali qilish, xatarlarni kamaytirish va aksiyadorlar manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan. Har bir nazariya korporativ boshqaruvning turli jihatlarini tushuntirishga yo'naltirilgan bo'lib, ular kompaniyalarning ijtimoiy mas'uliyati, iqtisodiy barqarorlik va strategiyalarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Kon-metallurgiya sanoati korxonalarida korporativ boshqaruvning dolzarbliji, shuningdek, tarmoqning yuqori kapital talab qiluvchi xususiyatlari bilan ham bog'liq. Yirik investitsion loyihalarni amalga oshirishda moliyaviy resurslarni jalb etish zarur bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, investorlarga korxona faoliyatida shaffoflik va hisobdorlikni ko'rsatishni talab etadi. Agar korporativ boshqaruv tizimi to'g'ri yo'lga qo'yilsa, korxonalar xalqaro moliya institutlari, tijorat banklari va strategik investorlar bilan samarali hamkorlik qila oladi. Aks holda, boshqaruvdagi kamchiliklar kapital jalb qilish imkoniyatlarini cheklaydi. Shu jihatdan, korporativ boshqaruv investitsion jozibadorlikni oshirishning muhim vositasi sifatida qaraladi.

Shuningdek, davlat ulushi mavjud kon-metallurgiya korxonalarida korporativ boshqaruv ijtimoiy mas'uliyatni ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi. Bu korxonalar ko'pincha yirik hududlarda joylashgan bo'lib, minglab ish o'rinalarini yaratadi va mahalliy infratuzilmaning rivojlanishiga hissa qo'shadi. Korporativ boshqaruvning asosiy tamoyillaridan biri bu manfaatdor tomonlarning, jumladan, xodimlar, mahalliy hamjamiyat va davlatning manfaatlarini hisobga olishdir. Shu orqali korxonalar nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy vazifalarni ham bajaradi.



Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, davlat ulushi mavjud korxonalarda, xususan, kon-metallurgiya sanoati korxonalarida korporativ boshqaruvni takomillashtirish dolzarb masala hisoblanadi. Bu jarayon nafaqat iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash, balki milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi, xalqaro investitsion hamkorlikni kengaytirish, ijtimoiy mas'uliyatni oshirish va ekologik barqarorlikni ta'minlashda ham muhim o'rinni tutadi. Tezis mavzusi aynan shu masalalarni ilmiy jihatdan o'rganish, ularning nazariy va amaliy asoslarini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni hal qilish bo'yicha takliflar ishlab chiqishga qaratilgan.

Shu bilan birga, ushbu tadqiqot orqali davlat ulushi mavjud kon-metallurgiya korxonalarida korporativ boshqaruvni takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish ko'zda tutiladi. Bunda xalqaro tajribani o'rganish, milliy xususiyatlarni hisobga olish va mavjud me'yoriy-huquqiy bazani tahlil qilish muhim o'rinni tutadi. Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, bugungi kunda iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi uchun davlat ishtirokidagi korxonalarni zamonaviy boshqaruv mexanizmlari asosida samarali faoliyat yuritishga yo'naltirish zarurati tobora ortib bormoqda. Shu sababli mazkur tadqiqot nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhim ilmiy ish sifatida qaraladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 19 apreldagi "Davlat ishtirokidagi yirik korxonalarni transformatsiya qilish va xususiyashtirish jarayonlarini jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-163-sun qarori.
- 2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 martdagagi "«Navoiy kon-metallurgiya kombinati» davlat korxonasini isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4629-sun qarori.
- 3.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 oktabrdagi "Davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilishni jadallashtirish hamda davlat aktivlarini xususiyashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6096-sun Farmoni.



4. Тапаров К.Х. Стратегические принципы совершенствования механизма корпоративного управления в горно-металлургической промышленности. Стратегирование: теория и практика рецензируемый журнал Том-4 № 4/2024. Стр. 510-524.
5. Герт А.В. Финансово-правовое регулирование корпоративных финансов/ А.В. Герт//Синергия наук. –2017. –№17. –С. 797-805. –EDN ZWUBUV.
6. Pardaev M.Q., Pardaev O. Davlatning innovatsion faoliyatga oid siyosatini shakllantirish – innovatsion iqtisodiyotni barpo qilish omili. Servis, 2017. 3-son, 4-8 betlar.
7. Hamdamov O.N. Korxonalarda moliyaviy menejment tizimini takomillashtirish//I.f.f.d.(PhD) ilmiy darajasi uchun diss. avtoref. –T., 2018. –58 b.
8. Karlibaeva R.X. Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejment tizimini samarali tashkil etish yo'llari//I.f.d. (DSc) ilmiy darajasi uchun diss. avtoref.–T., 2018. –68 b.